

**O‘TKIR HOSHIMOV IJODIDA URUSH MAVZUSINING YORITILISHI**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti  
Pedagogika va ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti talabasi  
Ismoilova Sevinch*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning hayoti va ijodi, yozuvchining mehnat faoliyati haqida ma’lumotlar berilgan. Shu bilan birga, yozuvchining badiiy mahorati, ijodiy yo‘li va adibning yozgan asarlarida urush mavzusining yoritilishi haqida batafsil ma’lumotlar berilgan. Adibning urush mavzusida yozilgan asarlarida inson va davr munosabati tahlil qilinadi. O‘tkir Hoshimovning yozgan asarlari yuzasidan adabiyotshunos olimlarning fikrlari bayon etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Tur, janr, qissa, roman, zamon va makon, konflikt, obraz, sujet chizig‘i.

**KIRISH**

Taniqli o‘zbek yozuvchisi O‘tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgust kuni Toshkentning Do‘mbirobod mahallasida tug‘ilgan. Uning bobosi va bobokalonlari ziyoli insonlar bo‘lishgan. O‘tkir Hoshimovning ajdodlari Beshyog‘ochdagi Abulqosim madrasasini qurishda qatnashgan. Bu madrasada Toshkentning ko‘pgina atoqli odamlari qatori buyuk adibimiz Abdulla Qodiriy ham o‘qigan. O‘tkir Hoshimovning otasi oddiy ishchi, onasi esa uy bekasi bo‘lgan. O‘tkir Hoshimov otasi haqida “Otam eskicha alifbodagi kitoblarni ham, zamonaviy gazetalarni ham mutassil o‘qib borar, kamgap, xiyla tajang ammo nihoyatda haqparast odam edi...” deb aytib o‘tgan. O‘tkir Hoshimovning onasi madrasada o‘qimagan bo‘lsada nihoyatda zehnli va mehribon ayol bo‘lgan. Adibning eslashicha, mahalla ahli onasini “Poshsha oyi” deya chaqirishgan. U mahalladagi barcha insonlarga yordam bergan. Hatto, biror yig‘lab turgan bolani ko‘rsa darrov boshini silab, ovutishga kirishgan. O‘tkir Hoshimov mahalladagi hashar yo‘li bilan qurilgan bir qavatli maktabda o‘qigan. Urush tugaganiga uch yil bo‘lgan bo‘lsa ham insonlarning ijtimoiy ahvoli yaxshilanib ulgurmagani. Shuning uchun ham adib Beshyog‘ochdagi bozorga olma, nok va shu kabi mevalardan sotib ro‘zg‘orga zarur narsalar harid qilgan va oilasiga yordam bergan[516. 484b]. Ammo bu kabi qiyinchiliklar adibning ta’lim olishi va ijodkor bo‘lib ulg‘ayishiga halal bermagan. Adib 5-sinfda o‘qib yurgan kezlarida adabiyotga qiziqib qoladi. U yozuvchi bo‘lishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Maktabni ham oltin medal bilan tamomlaydi. Va yozuvchi bo‘lish uchun qayerda ta’lim olishni surishtira boshlaydi. Bu izlanishlari uni Toshkent dorilfununing filologiya fakultetiga, to‘g‘riroq‘i jurnalistika bo‘limiga o‘qishga undaydi. O‘qishni 1964-yilda bitiradi.

Uning mehnat faoliyati ancha oldin boshlanib dastavval u gazetada kurer bo'lib ishlagan. Keyinchalik mutaxassisga yordamchi bo'lib, undan keyin esa adabiy hodimlikka ko'tariladi. 1966-yilda O'tkir Hoshimov "Toshkent oqshomi" gazetasida adabiyot bo'limining boshlig'i etib tayinlanadi. Adib bu lavozimda o'n olti yil mehnat qiladi. So'ngra, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir muovini bo'lib faoliyat yuritadi. 1985-yilda "Sharq yulduzi" jurnalining bosh muharriri lavozimida ishlaydi [516. 484 b].

### ASOSIY QISM

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov 60-yillarda adabiyotga qadam qo'ydi. Ko'plab hikoya, qissa, romanlar yaratdi. Adib "Po'lat chavandoz" deb atalgan birinchi kitobini 1962-yili hali talabalik davridayoq bosmadan chiqaradi. Shunday bo'lsa ham adibning ijodiy faoliyatini 1963-yildan boshlangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Shu yil O'tkir Hoshimovning "Sharq yulduzi" jurnalida "Cho'l havosi" nomli qissasi chop etiladi-yu adib kitobxonlar e'tiboriga tushadi. Qissa adabiyot ixlosmandlari orasida mashhur bo'lib ketadi. Shu bilan birga qissa adabiy tanqidchilar va tajribali yozuvchilar diqqatini ham tortadi. Jumladan atoqli yozuvchi Abdulla Qahhor muallifga shunday maktub yo'llaydi:

"O'tkir! "Cho'l havosi" ni o'qib suyunib ketdim. Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajaki porloq bo'ladi, qissa juda sof, samimiy, iliq, tabiiy rohat bilan o'qiladi. Qissaning xat shaklida bo'lishi ko'p joylarda ritmni buzadi, sizni cheklab qo'yadi. Hikoya birinchi shaxsdan olib borilsa ham shunday bo'lar edi. Buni o'ylang, hisobga oling.

Shu alanga hech qachon pasaymasin, ijodingiz hech qachon tutamasin!

Xurmat bilan Abdulla Qahhor"<sup>1</sup>.

O'tkir Hoshimovning "Gunafsha", "Shamol esaveradi", "Odamlar nima derkin?", "Qalbingga quloq sol" kabi qissalari ijodning ilk bosqichlarida yaratilgan bo'lib, yoshlar hayotiga bag'ishlangan. Adibning 1977-yilda birinchi romani "Nur borki, soya bor" bosilib chiqdi. Shundan so'ng, 1980-yillarda "Quyosh tarozisi", "Mashina sotaman", "Yalpiz somsa", "Oq kamalak", "Sirli yulduz", "Xazina", "Ikki karra ikki besh" kabi kitoblari bosmadan chiqdi. Xuddi shu yillari uning asarlari rus tiliga tarjima qilinib, Moskvada bosilib chiqdi<sup>2</sup>. O'tkir Hoshimovning 1982- yilda yozilgan "Dunyoning ishlari" qissasi onalar madhiga bag'ishlanadi. Adibning yana bir romani "Ikki eshik orasi" romani urush voqealarini va xalqning ijtimoiy hayotini tasvirlab beradi. Shuningdek adib juda ham barakali ijod qilib yosh adabiyotshunoslar uchun katta xazina qoldirgan. O'tkir Hoshimovning Pyessalari: "To'ylar muborak", "Sizdan ugina, bizdan bugina", "Vijdon dorisi", "Inson sadoqati", "Qatag'on".

<sup>1</sup> Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.

<sup>2</sup> Quronov D., Shermuhammedova N. O'tkir Hoshimov ijodi tahlili. – Toshkent: Sharq, 2020.

Ocherklari: “Po‘lat chavandoz”. Qissalari: “Cho‘l havosi”, “Bahor qaytmaydi”, “Qalbingga quloq sol”, “Ikki karra ikki besh”, “Dunyoning ishlari”, “Odamlar nima derkin”. Hikoyalari: “Urushning so‘nggi qurboni”, “Yanga”, “Muhabbat”, “Dehqonning bir kuni”, “Umr savdosi”, “Quyosh tarozisi”, “Oq bulut, oppoq bulut”. Romanlar: “Nur borki, soya bor”, “Ikki eshik orasi”, “Tushda kechgan umrlar”. Shu bilan birga, O‘tkir Hoshimovning 40 yil davomida yozilgan “Daftar hoshiyasidagi bitiklar” nomli hikmatlar to‘plami yosh kitobxonlar uchun ajoyib hayotiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qiladi<sup>3</sup>.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Yozuvchi urush yillarida tug‘ildi va bolalik chog‘laridan qiynalgan xalq hayoti bilan tanishdi. Urushning qoldirgan og‘riqli va chuqur jarohatini ko‘rdi. Urushdan keyingi ijtimoiy ahvol bilan tanishdi. Aynan shu mavzuda adib “Ikki eshik orasi” romanini yozdi. Va kitobxonlarga taqdim etdi. Shubhasiz, bu asar iliq kutib olindi. Hamda barcha uchun sevimli asarga aylandi. Asar sujeti qiziq va hayotiy tasvirlar, obrazlar bilan to‘ldirilgan. Asarda Muzaffar, Munavvar, Robiya, Qora amma, Kimsan, Orif oqsoqol, Xusan дума, Komil tabib, Bashor opa, Fotima va Zuhra kelinlar obrazlari gavalantirilgan. Asarda urush sababli ota-onalarning farzandlaridan, ayollarning o‘g‘il va erlaridan ayrilganliklari, xalqning turmush sharoiti tobora yomonlashib, qiyin ahvolda qolayotganini tabiiy vositalar bilan tasvirlangan. Urush davrida barcha erkaklar oilasidan ajratilib urushga yuborilgan. Ayollar esa uyda qolib mehnat qilgan. Erkaklar qiladigan yumushlarni ham ayollar bajargan. Ularning asosiy vazifasi askarlarga oziq-ovqat va kiyim-kechak yetkazib berish bo‘lgan. Bundan tashqari oila boqish, farzandlar tarbiyasi ham ayollar zimmasida qoladi. “Ikki eshik orasi” asari qahramoni Robiyaning otasi qamaligandan so‘ng Robiyaga Xusan дума va Qora amma tarbiya berishadi. Robiya ularning qo‘lida qoladi. Mahalla oqsoqoli Orif oqsoqol ularga yordam beradi. Qora ammaning yolg‘iz farzandi Kimsan urushga ketadi. Va qaytmaydi. Oila a‘zolari uni intiqlik bilan kutadi. Kimsan urushda mardona kurash olib boradi. Urush sababli qishloqlarda, ko‘chalarda yetim bolalar ko‘payadi. Mehribonlik uylari soni ortadi. Xalqda ocharchilik hukm suradi. Shuningdek, kechalari o‘g‘rilarning soni ortadi. Bularning hammasi urush sababli yuz berganini yozuvchi o‘quvchiga yetkazib beradi. Adib aynan asarni “Ikki eshik orasi” deb nomlashida ham ma‘no bor. Chunki asarda urush va tinchlik, sevgi va nafrat orasidagi masofa munosabati tahlil qilinadi. Asarda Robiya va Kimsanning muhabbati, sadoqati kishini ilhomlantiradi. Shu bilan birga o‘quvchida urushga nisbatan nafrat tuyg‘usini oshirishga xizmat qiladi. O‘tkir Hoshimovning urush mavzusida yozilgan “Tushda kechgan umrlar” asarida ham Rustam va Shahnoza sevgisi va sadoqati qalamga olinadi. Er yigitlarning vatan oldidagi burchlari tarannum etiladi. Asarda Rustam urush davrida ko‘plab qiyinchiliklarni boshidan kechiradi. Uning ko‘z o‘ngida do‘stlari halok

<sup>3</sup> Каримов Н. XX аср манзаралари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2008. – 316 б.

bo'ladi. Ko'plab insonlar hayotdan bevaqt ko'z yumganiga guvoh bo'ladi. Asar qahramoni Rustam ko'p insonlarni halok bo'lganini ko'rdi, o'zi ham boshidan chuqur jarohat oldi. Uning ongida urush chuqur chandiqlik qoldirdi. Oxir-oqibatda esa u halok bo'ldi. Shu mavzu yoritilgan adibning yana bir asariga nazar solsak, "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida ham aynan urushning chirkin oqibatlari tasvirlangan. Urushning so'nggi qurboni hisoblangan Umri xolaning oilasi va o'zining taqdiri bayon qilingan. Shoikrom va Xadichaning ziqnaligi, xasisligi uning ukasi Shone'matning sil kasaliga chalingani va onasining unga e'tibor berib yelib yugurishlari bayo qilingan. Qolaversa, zamon og'irlashgani sari qo'ni-qo'shning mol-holiga tushadigan o'g'rilarning ko'paygani Shoikromlarning ham sigirini o'g'irlagani ammo hech qanday chora topilmagani bayon etilgan. Asar oxirida Umri xola kasal farzandiga sut sotib olish maqsadida o'g'lining qulupnay egatlariga bildirmay kechqurun kiradi. Ammo o'g'li o'g'rilarning ko'payganidan egatlar ustiga simlarni qo'yib chiqadi. Uning maqsadi o'g'rini ushlab va bitta bo'lsa ham kamaytirish edi. Lekin o'sha to'rga Umri xola yiqildi. Uning jonsiz tanasi qulupnay egatlari ustida bukchayib qoldi. Umri Xolani peshinda chiqarishadi ayni shu damda urush poyoniga yetgani haqida habar keladi. Umri xola urushning so'nggi qurboni bo'lib qoladi.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, O'tkir Hoshimovning urush mavzusida yozilgan asarlarini o'qigan o'quvchi bevosita urushga nafrat ko'zi bilan qaraydi. Uning yomon illatligini fahmlaydi. Xalqimiz orasida ham "Bir kun urush bo'lgan joyda qirq kun baraka bo'lmaydi"- degan naql bejizga emas. Adib urush tugaganidan keyin ham uning asoratlari ancha yillar insonlarga azob-uqubat olib kelganini ko'radi. Xalqning ma'naviyati va madaniyati urush sabab orqada qolishi mumkinligini guvohi bo'ladi. Shuning uchun ham adib asarlarida tinchlikni qadrlash, uning mohiyati qanchalar buyuk ekanligini o'quvchiga yetkazmoqchi bo'ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Каримов Н., Мамажонов С., Назаров Б., Норматов У., Шарафиддинов О. XX аср ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1999.
2. Хошимов Ў. Икки эшик ораси. Роман. – Тошкент: Шарқ, 2013.
3. Ahmedov S., Qo'chqorov R., Rizayev Sh. 6-sinf adabiyot darslik. – Toshkent: Ma'naviyat, 2017.
4. Каримов Н. XX аср манзаралари. – Тошкент: O'zbekiston, 2008. – 316 б.
5. Quronov D., Shermuhammedova N. O'tkir Hoshimov ijodi tahlili. – Toshkent: Sharq, 2020.